
"O`zbekiston san’ati tarixi" kitob albomi: tarixdan so’zlovchi san’at to’g’risidagi manba

Islom sivilizatsiyasi markazi granti asosida amalga oshirilayotgan yana bir loyiha dunyo yuzini ko`rdi. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti "Tasviriy va amaliy bezak san’ati" bo`limi mudiri, san’atshunoslik fanlari doktori, akademik Akbar Hakimovning "O`zbekiston san’ati tarixi" kitob albomi nashrdan chiqdi.





Хакимов, А.
Ўзбекистон санъат тарихи
[Матн] / А. Хакимов.– Тошкент: Zilol bulo

ҮЎК 7.03(575.1)
КБК 85.31(5Ў)
Х 20

Таҳрир ҳайъати:

Ш. Минноваров (раис),
Б. Абдуҳалимов (раис муовини), Т. Қузиев, А. Сагдуллаев,
А. Саидов, Ш. Пидаев, Р. Сулейманов

Маъсул муҳаррир — академик Э. Ртвеладзе

Мустақиллик йиллари Ўзбекистон санъатининг тарихий ривожланиш концепцияси янгича талқинга эга бўлиб, эндиликда у яхлит тарихий-бадиий жараён сифатида тадқиқ ва таҳлил этилмоқда. Айнан ушбу нуқтаи назарни китоб муаллифи ўзининг Ўзбекистон санъати тарихига оид бир қатор умумлаштирган илмий асарларида қўллаб-қувватлаган. Ўзбекистон санъатининг тарихий тараққиётидаги узвийлик ва ўзига хослик хусусиятларини, санъатнинг умумий ҳаракатида ҳам, ўтмиш ва ҳозирги рассомларнинг шахсий ижодий изланишларида ҳам очиб бериш, бу китобнинг асосий ғоясига айланди. Унинг саҳифаларида Ўзбекистон бадиий маданияти ривожланишининг барча босқичларини — қадим замонлардан ҳозирги кунгача кузатишга имкон берадиган Ўзбекистон санъати, меъморчилиги ва ҳунармандчилиги ёдгорликлари тақдим этилган.

Исломгача бўлган давр санъати учун Ўзбекистон ҳудудида санъатнинг туғилиш жараёнини, тасвирларнинг ички дунёсини ва антик давр ҳамда илк ўрта аср санъати услубини кўрсатиш жуда муҳим эди. Ўша даврдаги деворий расмлар, ҳайкалтарошлик ва амалий санъат асарларида қадимий рассомлар, ҳайкалтарошлар ва ҳунармандларнинг маҳорати туфайли бизгача етиб келган сўнмас ҳаётий қудратни сезишимиз мумкин. Ислом санъати сегментида Ўзбекистон санъати тарихининг минг йиллан ортиқ давомида амалий санъатнинг умуминсоний тилига айланган безак эстетикасининг фалсафаси ва сеҳрини очиб бериш ҳам долзарб вазифалардан биридир. Замонавий санъат рўй берган тарихий ва сиёсий ўзгаришларни унинг тараққиётига таъсирини, шунингдек, санъатнинг ички мақсад, вазифалари ва рассомларнинг шахсий хоҳишларини тушуниш истагига таянган ҳолда таҳлил қилинган. Муаллиф, мазкур нашр ўқувчига ўтмиш қиёфа манзараларига чуқурроқ назар ташлашга ва ўзбек халқининг бадиий мероси инсонда ижтимоий-ахлоқий интилишларини тарбияловчи умрбоқий маънавий қадриятларни англашга ёрдам беради ва уларни қадрлашга ундайди деб умид билдиради.

Тадқиқот Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси марказининг
"Ўзбекистон ислом санъати — жаҳон цивилизациясининг ажралмас қисми"
илмий гранти доирасида бажарилган.

Грант раҳбари — академик Т. Қузиев

Муқовадаги фото. Авлиё оқсоқол йигитга сабоқ беради. Қўлёзмадан бир в
Камолиддин Ҳусайн Гузургоҳи. Мажолис ал-ушшоқ («Севишганлар ишла
Бухоро. 1650 йиллар Марджани фонди. Инв. Инв. IM.R-78. (Фрагмент)
Фронтиспис: Қушон шаҳзодаси ҳайкали. Далварзин-тепа, Сурхондарё. А
I аср. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Санъатшунослик и
тутиш. Тошкент

ISBN 978-9943-5821-2-5

©Khakimov A.
©"Zilol bulo

Kitobda san’atning eng qadimgi dunyo bosqichidan to bugungi O`zbekiston san’ati bosqichigacha bosib o`tgan yo`li hikoya qilinadi. Unda yurtimiz va dunyo muzeylarida saqlanayotgan xalqimiz va millatimizga tegishli barcha san’at javohirlari to`g`risida ilmiy-tarixiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kitob albom Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyining san’at bo`limi uchun asosiy nazariy va amaliy qo`llanma bo`la oladi.